

TERMINOLOGIK INTEGRATSIYA VA UNING IZOHLI LUG'ATLARDA IFODALANISHI

Hashimova Xurshida Djuraxanovna

Namangan davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi.

Namangan, O'zbekiston

xoshimova1101@gmail.com

+99897-2317501

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7858577>

Annotatsiya. O'zbek tilida terminologik integratsiya va uning izohli lug'atlarda ifodalanishi haqida. Terminlarining boshqa sohalar terminologik tizimlariga o'tishining obyektiv sabablar qayd etilgan. Shu sababli maqolada terminologik integratsiyaning ayrim qirralariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: leksika, termin, terminologiya, terminologik qatlam, kognitsiya, integratsiya, differentsiatsiya.

Zamonaviy ilm-fan yutuqlari, ijtimoiy o'zgarishlar fan sohasida turli yangi sohalarining paydo bo'lishiga (differentsiatsiya), ularning o'zaro mushtaraklashuvi (integratsiya)ga sabab bo'lmoqda. Ikki yoki undan ortiq sohalarining o'zaro qorishuvidan hosil bo'lgan yo'nalishlar, albatta, terminologik tizimini shakllantirishga intilishi tabiiy hol. Bilimlarning sintezlanishi natijasida yangi, noan'anaviy terminlar va shakllar yuzaga keladi.

Hozirgi kunda bilimlarning integratsiyalashuvi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- 1) bir fanga tegishli g'oya va yondashuvlarning ikkinchi fanga ko'chishi;
- 2) tushunchaviy-terminologik apparat, metodlarni samarali qo'llash;
- 3) tadqiqotning umumiy, sohalararo muammolari va qirralari shakllanishi;
- 4) "chegara" tipidagi yangi sohalarining shakllanishi;
- 5) o'zaro aloqa va munosabatlar kuchayishi natijasida predmeti jihatdan farq qiluvchi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi;
- 6) turli tipdagi sohalar – amaliy va nazariy, yordamchi va fundamental, yuqori darajada formallashgan va tavsifiy fanlarning yaqinlashuvi;
- 7) ilmiy til vositalarining universallashtirishuvi.

Terminologik differentsiatsiya ayniqsa aniq fanlar, masalan, tibbiyotda juda muhim. Biror tushunchani umumiy termin bilan atash, ularni farqlamasdan qabul qilish kasalliklarga samarali tashxis qo'yishga, ba'zan halokatli oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Turli fan sohalarining o'zaro hamkorligi natijasida ko'pincha chatishgan nuqtalarda yangi terminlarga ehtiyoj tug'iladi. Bunda mavjud terminlarning sathlanishi kuzatiladi. Shu tariqa fan sohalarining farqlanishi va tarmoqlanishi metatil (biror tilning tavsiflash uchun ishlatiladigan til)ning pragmatik shakllanishi bilan bog'liq.

Mazkur o'rinda terminologiyani yangi muammosi paydo bo'ladi. Ma'lumki, termin bir ma'noli bo'lib, matndan tashqarida ham unga bog'liq bo'lgan holatda faqat bitta ma'noni bildiradi. Biroq qaysi sohada qo'llanayotganiga qarab ularning ma'nosida farqlanish yuzaga kela boshladi.

Terminografik manbalarda terminlarni bir ma'noli ekanligiga urg'u berib ularning mujassamlashtirishga harakat bo'layotgan bir vaqtda, yangi vujudga kelayotgan yo'nalishlarga tegishli lug'atlarda ularning ma'nosini ayirib ko'rsatish, farqli jihatlariga urg'u berish kuzatiladi.

Shu o'ringa tadqiqotchining til sohibi sifatida subyektiv munosabatiga to'g'ri yondashish talab qilinadi.

M.Mirhamidov, S.Hasanovlarning "Yuridik til va huquqshunos nutqi", S.Karimov, X.Mamatov, I.Bo'riyevlarning "Yuristning nutq madaniyati", Mirhamidov, N.Norpo'latov, S.Hasanovlarning "Yuristning nutq madaniyati" o'quv qo'llanmalarida M.Abdusalomov va Sh.Ro'zinazarovlarning "Ruscha-o'zbekcha sud-huquqiy atama va iboralar lug'ati" yuridik nutq, huquqiy terminlarning etimologik tavsifi haqida fikr yuritiladi.

Sud nutqi borasida tadqiqot olib borgan Q.Mo'minov mazkur sohada terminologiyaning shakllanishi uzoq davrlarga borib taqalishini qayd etadi. "Sud nutqi leksikasini, asosan, adabiy tilning rasmiy uslubiga oid so'zlar tashkil etadi. Sud hukmi va qarorlari, sudlardagi chiqishlar rasmiy uslubda gapiriladi va yoziladi. Rasmiy uslubning asosiy talabi bo'lgan fikrning sodda, qisqa va aniq ifoda etilishi sud nutqida o'z aksini topadi". Muallif sud nutqida termin sifatida sud, sud'ya, prokuror, advokat, sud ijrochisi, guvoh, jabrlanuvchi, da'vogar, gumondor, sudlanuvchi, aybdor kabi shaxs tushunchasini ifodalovchi leksemalar; sud, sud muhokamasi, tergov kabi jarayon ifodalovchi; hukm, ayblov hukmi, oqlov hukmi, ajrim, qaror, jazo kabi yakuniy xulosa tushunchasini ifodalovchi so'z va so'z birikmalari faol qo'llanishini ko'rsatib, hukm termini va u bilan birga qo'llanuvchi birikma, qo'shma so'zlarni keltiradi. E'tiborli jihati, sud nutqida rasmiy uslubga xos terminlar bo'lsa, hukm o'tkazmoq, hukmiga havola qilmoq, hukmiga topshirmoq kabi birikmalar esa badiiy uslubga xosligi ko'rsatiladi. R.A.Ikramov hamda Q.A.Mo'ydinovlarning yana bir maqolasida huquq sohasiga boshqa tillardan kirib kelayotgan terminlar va ichki imkoniyatlar asosida yangi huquqiy terminlarning yasalishi borasida fikr yuritiladi. Bu holat huquqshunoslikda yangi tushunchalar yuzaga kelayotgani, milliy-huquqiy tizim, milliy-huquqiy qonunchilik bilan bog'liq holatda yuz berayotgani bilan bog'lanadi.

Hozirgi kunda axborotlarni tushunish va qabul qilish jarayoni alohida muammo sifatida qaralmoqda. Axborot bor, lekin uni yetarli darajada tushunish (kognitsiya) va talqin qilish (interpretatsiya) muammolari ko'zga tashlanmoqda. Professional nutq madaniyati tushunchasi kengaymoqda. Terminlar bir jihatdan tushunchaning to'liq ifodalanishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, tushunarsizligi tufayli umumiy kognitiv faoliyatga salbiy ta'sir qiladi. Ilmiy matnlarning asosiy maqsadi axborotni bir ma'noli qilib yetkazishdir. Ilmiy nasrning belgilari ham shu ustuvor vazifa – aniqlik va mantiqiy izchillik asosida tuziladi.

References:

1. Лобковская Людмила Петровна, Лучинская Елена Николаевна Особенности интеграции юридической терминологии в русском языке // Культурная жизнь Юга России. 2014. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-integratsii-yuridicheskoy-terminologii-v-russkom-yazyke> (дата обращения: 14.03.2023).
2. Мўйдинов Қ, Ҳукм сўзининг тил ва нутқда ифодаланishi // Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11, 2021 – Б.1253-1258
3. Икратов Р., Мўйдинов Қ, Ҳуқуқ тили ва нутқи // Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021. – Б. 719-727
4. Kuziev, Umidjon and Aslanova, Shahnoza Yashnarovna (2019) "DICTIONARIES COMPILED BASED ON NAVOI'S WORKS," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol.

1 : Iss. 6 , Article 56.

5. Qo'ziyev U. et al. TILDA SOFLIK MASALASI //" Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 76-78.

6. Ormonovich D. I. Phonetic Laws Relating To The Vowels In Namangan Dialects //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 189-195.

7. Kozakova N. A. PRAGMATICS OF PHRASEOLOGIES WITH THE EXAMPLES FROM GAFUR GHULAM'S PROSE WORKS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – C. 449-452.

8. Toshpolatov, Azamat Mehmonaliyevich. "A Pragmatic Study of the Ratio Category: Statement of the Problem." Texas Journal of Philology, Culture and History 8 (2022): 1-4.

